

FAVQULODDA KOMISSIYALARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI (1917-1920 YILLAR)

Rasulova Iroda Abduxoligovna

QarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola 1917–1920-yillarda Butunrossiya Favqulodda Komissiyasining (BFK) shakllanish bosqichlari, vakolatlari va ularning sovet hokimiyati barqarorligini ta'minlashdagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqot komissiyaning siyosiy, huquqiy va repressiv funksiyalarini, front va armiyadagi faoliyatini, shuningdek, BFKning mahalliy hukumat organlari bilan o'zaro aloqasini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, BFK sovet hokimiyatining mustahkamlanishi va aksilinqilobiy faoliyatni nazorat qilishda muhim vosita bo'lgan.

Kalit so'zlar: Sovet hukumat, Butunrossiya Favqulodda Komissiyasi, BFK, inqilobiy tribunallar, repressiya, siyosiy nazorat, 1917–1920, armiyada faoliyat, huquqiy vakolat, aksilinqilobiy kurash.

Abstract: This article analyzes the formation stages, authority, and role of the All-Russian Extraordinary Commission (Cheka/VRK) during 1917–1920. The study examines the commission's political, legal, and repressive functions, its activities in the frontlines and army, and its interaction with local government institutions. Results indicate that the VRK was a key instrument in consolidating Soviet power and controlling counter-revolutionary activities.

Keywords: Soviet government, All-Russian Extraordinary Commission, Cheka/VRK, revolutionary tribunals, repression, political control, 1917–1920, military activity, legal authority, counter-revolutionary measures.

Аннотация: Статья посвящена анализу этапов формирования, полномочий и роли Всероссийской чрезвычайной комиссии (ВЧК) в 1917–1920 годах. Исследование рассматривает политические, правовые и репрессивные функции комиссии, её деятельность на фронтах и в армии, а

также взаимодействие с местными органами власти. Результаты показывают, что ВЧК являлась ключевым инструментом в укреплении советской власти и контроле за антисоветской деятельностью.

Ключевые слова: Советская власть, Всероссийская чрезвычайная комиссия, ВЧК, революционные трибуналы, репрессии, политический контроль, 1917–1920, деятельность в армии, правомочия, борьба с контрреволюцией []

Kirish. 1917-yil 7-dekabrda Butunrossiya favqulodda komissiyasi (BFK) tuzilib, uning raisi F.E.Dzerjinskiy, kollegiyasi a'zoliciga esa, D.G. Yevseyev, N.A. Jidel, I.K. Ksenofonotov, Y.X. Peterslar kiritilgan edi.

1918 yil fevral oyiga kelib, mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyat va tashqi xavflar tufayli BFKning faoliyat doirasi va vakolatlari yanada kengaydi. 1918 yil 21 fevralda Xalq Komissarlari Soveti raisi V.I. Leninning “Sotsialistik Vatan xavf ostida!” nomli dekreti e’lon qilindi. Dekretida “Chet el agentlari, chayqovchilar, qaroqchilar, bezorilar, aksilinqilobchilar, Germaniya ayg’oqchilarini jinoyat joyida otilsin”[1] deya ko’rsatma berilgan edi. Shunday qilib, 1918 yil fevralidan e’tiboran BFK “aksilinqilobiy” va boshqa tekinox’r kuchlarga qarshi kurash olib borishdek vazifadan boshqasini ko’rmasligi, jinoyatlarni o’z joyida shafqatsizlik bilan bostirishga, otuv hukmini qo’llashga qaror qildi. BFK bolsheviklar uchun “qalqon va qilich” edi[2]. Ayni shu davlat organining yordami bilan sovet hokimiyati joylarda o’z hokimiyatini saqlab qoldi, proletariat diktaturasini o’rnatdi.

Asosiy qism. Moskvada ham, boshqa hududlarda ham bundan buyon barcha hibsga olishlar, tintuv o’tkazishlar, mol-mulkni ro’yhatga olish va musodara qilish kabi jinoyatlarga bog’liq barcha hatti-harakatlarni favqulodda komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi[3].

Favqulodda komissiya tez orada cheklanmagan huquqlarga ega bo’ldi. Favqulodda komissiya o’zi qamoqqa oladi, o’zi tergov olib boradi, sud qiladi, hukm chiqaradi va ijroni ta’minlaydi. Bir so’z bilan aytganda, favqulodda

komissiya o'z faoliyati uchun shunday katta vakolatga ega bo'ldiki, bunday vakolatga na politsiya va na jandarmlar ega bo'lgan edi. BFK faoliyatidan noroziliklar o'sha vaqtdayoq hukumat rahbarlari orasida ham kuchaygan edi. Natijada 1918-1920 yillarda ma'lum vaqt BFKning ba'zi vakolatlari "inqilobiy" tribunallarga olib berildi[4]. Biroq oz muddatdan so'ng yana barcha vakolatlar chekistlarga qaytarilib berildi.

Qizil armiya tarkibidagi BFK organlari 1918-yil oxirida aksilinqilobga qarshi kurash, armiyada josuslik va dushman ortidagi ayg'oqchilik ishlarini tashkil etish uchun tuzilgan. 1919-yil 21-fevralgacha front va armiyada ham CHK organlari faoliyat ko'rsatgan. Shu davrdan boshlab ular Qizil armiya qismlari va idoralarida josuslik va aksilinqilobga qarshi kurash bo'yicha maxsus bo'limlarga aylantirilgan, bu bo'limlar armiya ichidagi aksilinqilobchilarga qarshi kurash, armiyada josuslik va dushman ortidagi ayg'oqchilik ishlarini tashkil etish uchun tuzilgan.

1919-yilgi jangovar davr davomida harbiy chekistlarning uyezd va gubernya FKlari qatori faol amaliyotda bo'lgan. 1920-yilning birinchi yarmida Turkiston frontidagi BFK Maxsus bo'limining jazo faoliyati statistikasi ma'lumotlariga ko'ra 3.140 kishi hibsga olingan, shu jumladan, josuslik va qarshi inqilob uchun 960 va 58 kishi, ulardan 170 nafari otib tashlangan edi. Bu davrda oddiy aholi vakillari hamda yirik zamindorlar barcha maxsus bo'lim xodimlarini ichkilikboz, zo'ravon, poraxo'r va qiynoqqa soluvchi deb hisoblagan. Bu o'sha davr muarrixlari jumladan A. S. Iosilevich tadqiqotida ham garchan muarrix bu tashkilot faoliyatiga ijobiy baho bergan bo'lsa-da, to'xtalib o'tgan[5].

BFKda asosiy bo'limlardan tashqari, xo'jalik bo'limi, moliya bo'limi va boshqa xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar ham mavjud edi. Guberniyalardagi FKlar ham shunday tarzda tashkil qilingan edi. Biroq ahamiyati kamroq bo'lgan guberniya shaharlarida aksilinqilobchilikka va lavozimdagi jinoyatlarga qarshi kurash vazifalari bir bo'limda birlashtirilishi mumkin edi. BFKning ko'rsatmalariga muvofiq, mahalliy FKlarda ham albatta aksilinqilobchilikka qarshi kurash bo'limi mavjud bo'lishi, bu bo'limni qandaydir bo'limlar yoki bo'linmalar

tarkibida bo'lmashligi talab qilingan. Uyezdlardagi FKlar esa soddaroq tuzilmaga ega edi. Ularda boshqa shaharlardagi FKlar faoliyatini nazorat qiluvchi bo'limi yo'q edi va aksilinqilobchilikka hamda lavozimdagi jinoyatlarga qarshi kurash ishlari albatta bir bo'limda birlashtirilar edi. Chayqovchilik qarshi kurash bo'limi uyezdlarda saqlanib qolgan edi.

1919 yil 30 yanvarda RKP (b)ning Moskva shahar konferensiyasining umumiy yig'ilishida N.V.Krilenko BFKning vakolatlarini cheklash haqida nutq so'zlabl "FKning nazoratsiz, xufiyona olib borayotgan faoliyatiga chek qo'yish" lozimligini uqtirdi. Dzerjinskiy Krilenkoga javob qaytarib BFK ish faoliyati ko'lamini asoslar ekan: "Qayerda proletariat ommaviy terrorni qo'llar ekan, biz u yerda xoinlikni ko'ramiz", "BFKda favqulodda otuv jazosini qo'llash vakolati bo'lishi lozim"[4] dedi.

Natija va muhokamalar. F.E.Dzerjinskiy fikrini BFK xodimlari Y.X.Peters va G.S. Morozlar qo'llab, Krilenko-sovet ishchisi, "inqilobiy" tribunal a'zosi, shu bois BFK faoliyatini cheklamoqchi deyishdi. Munozara oxirida Krilenko o'z fikrini bildirib "chekistlar inqilobni saqlab qoluvchi monopolistlarga o'xshab qolmoqda" dedi. Krilenko taklifiga muvofiq yig'ilish qaror qiladi, huquqiy asosga ega qarorlarni qabul qilish huquqi "inqilobiy" tribunallarga beriladi, BFKga esa "jinoyat qidiruv ishlari va ular xaqida ma'lumot to'plash, hukumatni ogohlantirish" vazifasi yuklatildi. BMIKning 1919 yil 17 fevraldagi qaroriga muvofiq BFK joylarda hukmni ijrosini ta'minlash, harbiy holatlarni e'lon qilish, aksilinqilobiy chiqishlarni bostirish, uning oldini olish vakolatini saqlab qoldi[4].

1920-yil 17-yanvarda BMIK va XKS tomonidan BFK va shahar, guberniya FKlari va Oliy tribunal qarorlarisiz oliy jazo (otuv) qo'llanilishini bekor qilish to'g'risidagi qaror qabul qilindi va V.I.Lenin hamda F.E. Dzerjinskiy tomonidan imzolandi. Biroq, bu qaror kuchga kirishidan oldin Petrograd va Moskva FKlari tomonidan kechalari mahbuslarni noqonuniy otib tashlanganliklari ham aniqlangan. Bu otuv xuquqini bekor qilish uzoq davom etmadi, 1920-yil 28 yanvarda Dzerjinskiy barcha frontdagi BFKlarga "BMIKning 1919-yil 22-iyundagi qarorida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun bevosita qatl, ya'ni "otuvga"

ruxsat bergan maxfiy telegrammasi”ni ham yuborgan edi[6]. Shuningdek, u 1920-yil 12-fevralda G.I. Bokiya Turkiyaliklarga bu bekor qilishni tatbiq etmaslikni topshirdi, Polsha intervensiyasi boshlangach esa, 6 mart kuni Belarusiyaga maxsus telegramma yuborilib, front va armiya maxsus bo‘limlariga, shuningdek, fuqarolik tribunallariga otuv huquqini qayta tiklab berildi[1].

1920-yil 17 aprelda maxfiy tarzda BFKning favqulodda komissiyalar va tribunal o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi 4-sonli “Favqulodda komissiyalar va tribunal o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida” aylanma xati qabul qilindi. Unda tribunal uchun quyidagi maxsus ko‘rsatma berilgan edi: “BFK tribunallar uchun ishlarni “soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqish” bo‘yicha maxsus ko‘rsatma ishlab chiqmoqda. Bu ko‘rsatma qat’iy ravishda e‘lon qilingan qonun moddalarga asoslangan bo‘lsa-da, unda sud jarayonining barcha bosqichlari ayblovi xulosasini o‘qish, ayblanuvchini so‘roq qilish va hukm chiqarish bilan chegaralanadi[1]”, deyilgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Butunrossiya favqulodda komissiyasi (BFK)ning tashkil etilishi bolsheviklar hokimiyatining siyosiy va mafkuraviy jihatdan mustahkamlanishida muhim xizmat qildi. Ushbu tuzilma rasman inqilob yutuqlarini himoya qilish, aksilinqilobiy kuchlarga qarshi kurashish va davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan bo‘lsa-da, amalda u sovet hokimichtining repressiv mexanizmiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Красная книга ВЧК Том 1. – Москва: Издательство политической литературы, 1989. – С. 4.
2. Мозохин О.Б. Право на репрессии: Внесудебные полномочия органов государственной безопасности (1918-1953). – Москва: Кучково поле, 2006. – С. 48.
3. Из истории Всероссийской чрезвычайной комиссии (1917-1921 гг.). Сборник документов. – Москва, 1958. – С. 103.

4. Литвин А. Красный и белый террор в России 1918-1922 гг (Совершенно секретно). – Москва, Яуза, ЭКСМО 2004. – С. 70.
5. Иосилевич А. С. Особые Отделы и их значение в деле создания Красной Армии // Военная мысль. Сент. 1920. Изд. РВС Туркестанского фронта (Ташкент). Кн. 1. – С. 126.
6. Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ. Том 1. 1918 – 1922. – Москва: РОССПЭН, 1998. – С.117-118.